

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

28-mavzu: “O‘zbek madaniyati”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarga o‘zbek xalqining madaniyati tarixiy ildizlari, milliy qadriyatlar, san’at haqida tushuncha berish, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, o‘quvchi ongida o‘zbek xalqining boy madaniy merosini asrab-avaylash va uni dunyo miqyosida targ‘ib etish g‘oyasini shakllantirish.

Annotatsiya: Mazkur dars orqali o‘quvchilarga o‘zbek madaniyatining asrlarga borib taqaluvchi tarixiy ildizlari, san’at turlari, qadriyat va an’analar hamda bu boy madaniy merosni asrab-avaylash zarurati haqida tushuncha beriladi. Darsda o‘quvchilar xalq amaliy san’ati, musiqa va raqs madaniyati, milliy liboslar bilan tanishadilar.

Aniq maqsadlar:

O‘quvchilarga O‘zbekiston madaniyatining tarixiy ildizlari, milliy san’at va an’analar haqida asosiy tushunchalarni berish;

O‘quvchilarda milliy madaniyatga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantirish;

O‘zbekistonning boy madaniy merosini asrab-avaylash va uni xalqaro maydonda targ‘ib etish zarurligini tushuntirish va bu borada ongli munosabatni shakllantirish;

O‘quvchilarda Vatanga muhabbat, tarixiy xotiraga hurmat, milliy qadriyatlar bilan faxrlanish kabi ijobiy his-tuyg‘ularni shakllantirish;

O‘quvchilarning madaniy merosga oid bilim va qarashlarini hayotiy misollar asosida tushuntirish va bu bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Asosiy g‘oya:

O‘zbek xalqining boy va qadimiy madaniy merosi – bu millatning o‘zligidir. Uni asrab-avaylash, avloddan-avlodga yetkazish va jahon miqyosida targ‘ib etish har bir yosh avlodning burchidir.

Kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy darajada:

O‘quvchilar o‘zbek xalqining madaniyati, urf-odatlar, san’ati va an’alarining tarixiy ildizlari haqida bilimga ega bo‘ladi.

Madaniy meros tushunchasi va uning xalq hayotidagi o‘rni haqida umumiy tasavvur hosil qiladi.

O‘zbek madaniyatining boshqa xalqlar madaniyati bilan o‘xshash va farqli jihatlarini tushunadi.

Madaniy qadriyatlarning saqlanishi va targ‘ib etilishi zarurligini asoslab bera oladi.

Hissiy va qadriy yondashuvda:

O'quvchilarda o'z milliy madaniyatiga nisbatan faxr tuyg'usi shakllanadi.

Madaniy merosni asrashga mas'uliyatli munosabatda bo'lish, qadriyatlarni qadrlash hissi uyg'onadi.

Vatanni sevis, milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat bilan qarash kabi tuyg'ular mustahkamlanadi.

Estetik did, go'zallikni ko'ra olish va qadrlash qobiliyati rivojlanadi.

Amaliy ko'nikmalar darajasida:

O'quvchilar milliy madaniyat haqida fikr yuritish, ularga oid misollar keltirish ko'nikmalarini egallaydi.

Guruhda ishlash, fikr almashish, madaniy mavzularda ijodiy loyiha yoki taqdimot tayyorlash tajribasiga ega bo'ladi.

Madaniy-tarixiy obidalar, o'zbekona urf-odatlar, xalq san'ati haqida ma'lumot izlash va ularni taqdim etish ko'nikmasi shakllanadi.

To'g'ri savol berish, muloqot qilish, madaniyat mavzusida suhbat qurish amaliyoti ortadi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

O'quvchilarni o'z sinfdoshlari bilan hamkorlikda ishlash, fikrlash va madaniy masalalarda muloqot qilish madaniyati rivojlanadi.

Ijtimoiy hayotda madaniy merosning ahamiyatini tushunib, bu boradagi fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Milliy birlik va totuvlik g'oyalarini anglaydi, turli hududlarning madaniy xususiyatlariga hurmat bilan qarashni o'rganadi.

Yosh avlod sifatida o'zining madaniy merosni asrashdagi rolini anglaydi va buning uchun mas'uliyatni sezadi.

Metapredmet yondashuv:

- **Tarix:** Madaniyatning tarixiy ildizlari, qadimiy davrlardagi urf-odatlar va an'analar haqida ma'lumotlar bilan bog'lanadi.
- **Adabiyot:** O'zbek yozma adabiyotidagi madaniy obrazlar, xalq og'zaki ijodidagi urf-odatlar va qadriyatlar aks ettiriladi.
- **Musiq:** Milliy raqs, kuylar, amaliy san'at (kashtachilik, kulolchilik) orqali o'quvchilarda estetik did shakllanadi.
- **Geografiya:** O'zbekiston hududlaridagi madaniy farqlar, tarixiy yodgorliklarning joylashuvi bilan bog'lanadi.
- **Media savodxonlik:** Loyihalar yaratish, taqdimotlar tayyorlash va internet orqali madaniy meros haqida izlanish olib borish.

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. <https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Tavsiya etilgan shakl: bilim beruvchi suhbat, musiqiy namoyish, videolavha.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi sinfga kiradi. Qo'lida telefon bor. Biroz pauza qiladi.

O'qituvchi: Tasavvur qiling, telefoningiz birdaniga ishlamay qoldi. Ilovalar ochilmayapti, ekran qotib qolgan. Nima qilasiz?

O'quvchilar:

– O'chiramiz, qayta yoqamiz...

– Ustaga olib boramiz...

O'qituvchi: To'g'ri. Chunki telefon ichidagi dastur, ya'ni kod buzilgan bo'ladi. Kod ishlamasa, butun tizim ishlamaydi. Jamiyatda "kod" buzilsa-chi? Odamlar bir-biriga chiroyli muomala qilmasa... go'zallikni ko'rmasa, his qilmasa, zavqlanmasa... Gaplashish madaniyati yo'qolsa... Nima bo'ladi?

O'quvchilar fikr bildiradi

O'qituvchi: Demak, madaniyat – bizning "ICHKI KODIMIZ".

Doskaga katta qilib yoziladi:

MADANIYAT = KOD

O'qituvchi: Bolalar, "kod" deganda nimani tushunasiz?

(O'quvchilarning taxminiy javoblari: dastur, IT, o'yinlar...)

O'qituvchi: To'g'ri. Kod – bu tizimni boshqaradigan qoidalar. Agar kod to'g'ri yozilsa, hamma dasturlar yaxshi ishlaydi. Agar xato bo'lsa, tizim buziladi.

Inson ham bir "tizim". Uning ham gapirishi, muomalasi, tashqi dunyo bilan munosabati, dunyoqarashi, qarorlari bor. Bularni madaniyat boshqaradi. Ya'ni madaniyat bu insonni boshqarib turadigan ichki koddir. Bu kod insonni yaxshiroq qiladi, to'g'ri yo'lni ko'rsatadi, odamni odamga yaqinlashtiradi.

Bir mashhur fikr bor, yozuvchi Fyodor Dostoyevskiy aytgan: **"Dunyoni go'zallik qutqaradi"**.

Bu yerda faqat tashqi go'zallik nazarda tutilyapti deb o'ylamanglar. Bu insonning xulqidagi, muomalasidagi, madaniyat va san'atdagi go'zallikdir. Demak, madaniyat – bu dunyoni yaxshiroq qiladigan kod.

Agar bu kod kuchli bo'lsa, jamiyatda o'zaro hurmat bo'ladi, odamlar bir-biriga mehrli bo'ladi, muhit o'zgaradi. Agar u zaif bo'lsa-chi? Teskarisi bo'ladi, tabiiy.

Har bir jamiyatning o'z "kodi" bo'ladi. Bu kod qayerdan paydo bo'ladi? Uni xalq yaratadi. Asrlar davomida xalq o'z hayoti, qadriyatlari, urf-odatlarini orqali milliy madaniyatini yaratadi. Aynan shu madaniyat uni boshqalardan farqli qiladi va boshqalarga tanitadi ham.

O'qituvchi doskaga yozadi:

O'ZBEK MADANIYATI = MILLIY KOD

O'qituvchi: Masalan, bizning maqomlarimiz, "Lazgi" yoki "Andijon polkasi" kabi raqslarimiz, baxshichilik san'atimiz, milliy naqshlarimiz,

me'morchiligimiz, o'zbek teatri, kinosi, adabiyoti... Bularning barida go'zallik bor va bu aynan o'zbekona, milliy go'zallikdir. Ulardan bahra olgan inson ezguroq, yaxshiroq, yetukroq bo'ladi. Ichki madaniyati yuksak insonlar milliy madaniyat va san'at durdonalarini yaratadi. Ayni paytda bu durdonalar boshqa insonlarning ichki madaniyatini oshiradi. Bu doim o'zaro ta'sirda bo'lgan bir-biriga bog'liq ikki madaniyatdir.

Madaniyat davlatimiz darajasida asrab-avaylanayotgan va rivojlantirilayotgan katta qadriyatdir. Prezidentimiz boshchiligida milliy qadriyatlarimizni saqlash, madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlash, yoshlarimizga yetkazish bo'yicha juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Kelinglar, shu jarayonlarni aks ettirgan qisqa videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Buyuk kelajak, buyuk adabiyot, buyuk san'at sari

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/482

O'qituvchi: Videoda ko'rdikki, madaniyat – bu faqat tarixda qolib ketgan meros emas, u bugun ham yashayapti va rivojlanyapti. Bu jarayonda bizning o'rnimiz qanday? Bugun biz shu haqida gaplashamiz.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Demak, biz kirish qismida madaniyatni insonni boshqarib turadigan ichki kod deb tushundik. Endi shu kodning mazmunini ochamiz. Chunki “o'zbek madaniyati” degan katta tushunchani faqat bir-ikki so'z bilan tushuntirib bo'lmaydi. Uni ko'rish, his qilish, anglash kerak.

Shuning uchun bugun biz bu mavzuni to'rtta muhim savol orqali ochamiz:

- o'zbek madaniyati nimalardan iborat?
- nega u dunyoda yorqin madaniyat sifatida tanilgan?
- nima uchun uni bilishimiz va sevishimiz kerak?
- kelajakda bu madaniyat har birimizga nima beradi?

Demak, boshladik!

O'qituvchi doskaga yozadi:

O'zbek madaniyati nimalardan iborat?

O'qituvchi: Ko'pchilik madaniyat deganda faqat milliy kiyimni, qo'shiqni yoki bayramni tushunadi. Aslida esa madaniyat bundan ancha keng tushuncha. Bu xalqning yashash tarzi, didi, muomalasi, qadriyatlari, san'ati, me'morchiligi, hunarmandchiligi, musiqa va raqsi, marosimlari, bayramlari, hatto go'zallikni qanday tushunishigacha bo'lgan ulkan dunyodir.

O‘zbek madaniyati – keng va rang-barang olam. Unda Samarqand, Buxoro, Xiva singari tarixiy shaharlarning me’moriy salobati bor, Farg‘ona vodiysining nafis hunarmandchiligi ham bor, Xorazmning jo‘shqin “Lazgi”si ham, “Shashmaqom”ning sokin va chuqur ruhi ham, qadimiy va barhayot baxshichilik an‘analari ham bor. Keling, shu haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

O‘zbek madaniyatini bir saroyga jamladik

https://youtu.be/qWB1_wafOPM?si=vNcfxuEDfMRY8qKy

O‘qituvchi: Endi ikkinchi savolga o‘tamiz.

O‘qituvchi doskaga yozadi:

Nima uchun o‘zbek madaniyati dunyoda yorqin madaniyat sifatida tanilgan?

O‘qituvchi: O‘zbek madaniyati sun’iy yaratilgan narsa emas, u asrlar davomida xalqning yuksak yutuqlaridan barpo bo‘lgan.

O‘zbek madaniyati doimiy rivojlanishda. Unda xalqning ruhi bor. O‘zbek madaniyati rang-baranglik, nafasat va jo‘shqinlikka boy. U bizni dunyoga quyoshsevar, san’atsevar, mehmondo‘st, mahoratli xalq sifatida tanitadi.

Masalan, “Lazgi” raqsida hayotga muhabbat, ichki energiya va erkinlik seziladi.

“Shashmaqom” da chuqur tafakkur, nozik did va ruhiy balandlik bor.

Baxshi doston aytayotganda xalqning xotirasi, ovozi, qahramonlik ruhini ko‘rsatadi.

Kashtachilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi yoki naqqoshlik namunalariga qaraganda o‘zbek xalqining sabri, nafis didi va qo‘lidagi mo‘jizani ko‘rasiz.

Bugun bu boyliklarning ko‘pi xalqaro miqyosda ham tan olingan. UNESCO‘ning Nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga O‘zbekistonga oid qator namunalar kiritilgan: Shashmaqom, Katta ashula, Askiya, Palov madaniyati va an‘analari, Xorazm lazgisi, baxshichilik san’ati, ipakchilik va atlas-adras tayyorlash an‘analari, miniatyura san’ati, shuningdek, Navro‘z ham madaniy meros sifatida e’tirof etilgan.

UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatida esa Xivadagi “Ichan qal’a”, Buxoro tarixiy markazi, Shahrisabz tarixiy markazi, “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi” kabi obidalar bor.

Bu nimani anglatadi? Bu shuni anglatadiki, bizning madaniyatimiz faqat o‘zimiz uchun qadrli emas, balki butun insoniyat uchun ahamiyatli boylik hisoblanadi.

Hozir sizlar o'zbek madaniyati haqida qiziqarli suhbatni qo'yib beraman. Unda madaniyatimiz va san'atimizning yirik janrlaridan biri – kino haqida so'z boradi

Vizual kontent

“Kinofilmlar yillar o'tib madaniy merosga aylanadi” – Ayub Shahobiddinov

<https://youtu.be/1YTGITdCpt8?si=WkxmgSiumDqGsVe1>

Video tugagach, 2-3 o'quvchi o'z taassurotini aytadi.

O'qituvchi: Endi uchinchi savolga o'tamiz.

O'qituvchi doskaga yozadi:

Biz madaniyatimizni bilishimiz va sevishimiz nima uchun muhim?

O'qituvchi: Inson o'zini anglashni o'z ildizidan boshlaydi. O'z madaniyatini bilmagan odam qayerdan kelganini, nimalarga tayanganini, qanday ruhiy boylikka ega ekanini to'liq his qila olmaydi.

Madaniyatni bilish – bu faqat tarixni yod olish emas. Bu o'z xalqining go'zallikni qanday yaratganini, qanday yashaganini, nimani qadrlaganini tushunishdir. Kim o'z madaniyatini sevsa, u o'z xalqiga nisbatan hurmat bilan qaraydi. Kim o'z xalqiga hurmat bilan qarasa, u boshqalarning madaniyatini ham qadrlashni o'rganadi. Demak, milliy madaniyatni sevish millatchilik emas, aksincha, insonni kengroq, teranroq va bag'rikengroq qiladi.

Tasavvur qiling, dunyoda juda ko'p xalqlar bor. Har biri o'z ovozi, o'z rangi, o'z uslubi bilan chiroyli. Agar bir xalq o'z madaniyatini unutib qo'ysa, dunyo nimanidir yo'qotadi. Shuning uchun madaniyatni saqlash – faqat davlatning yoki san'atkorlarning ishi emas. Bu har bir fuqaroning vazifasi.

Agar bir kun kelib odamlar milliy qo'shiqlarni tinglamasa, hunarmandchilik buyumlarini qadrlamasa, tarixiy obidalarni asramasa, nima bo'ladi?

O'quvchilar fikrini aytadi.

O'qituvchi: Agar shunday hol ro'y bersa, biz dunyo xalqlari orasida o'z o'rnimizni yo'qotib qo'yamiz. Qoloq, madaniyatsiz, rivojlanmagan jamiyat bo'lib qolamiz.

Hozir bizning madaniyatimizning eng boy xazinalaridan biri bo'lgan Xorazm milliy me'morchiligi an'analari o'zida mujassam etgan “Arda Xiva” majmuasi haqida tayyorlangan lavhani birgalikda tomosha qilamiz.

Vizual kontent

“Arda Xiva” shaharchasidamiz

<https://youtu.be/H5zrpXAU3zE>

Video tugagach o'qituvchi o'quvchilardan taassurotlarini so'raydi va muhokama qiladi.

O'qituvchi: Endi to'rtinchi savolga o'tamiz

O'qituvchi doskaga yozadi:

O'zbek madaniyati menga nima beradi?

Men uni rivojlantirishga qanday hissa qo'sha olaman?

O'qituvchi: Bu savollar juda muhim. Chunki madaniyat sizga faqat faxr tuyg'usini beribgina qolmaydi. Yana sizga did beradi, o'zingizga ishonch beradi, kim ekaningizni eslatadi, nutqingizni, muomalangizni, dunyoqarashingizni boyitadi.

O'z madaniyatini bilgan bola estetik sezgir bo'ladi, go'zallikni ajrata oladi, so'zning qadriga yetadi, san'atni tushunadi, tarixni qadrlaydi. Bunday inson kelajakda qaysi sohada ishlamasin – o'qituvchi bo'ladimi, shifokor, dasturchi, jurnalist, dizayner, san'atkor yoki tadbirkor bo'ladimi – o'z ishiga did, mas'uliyat va milliy ruh olib kiradi.

“Men hali bolaman, madaniyatga qanday hissa qo'sha olaman?” deb o'ylashingiz mumkin. Aslida hissa juda oddiy narsalardan boshlanadi: ona tilida chiroyli va to'g'ri gapirish, milliy kuy-qo'shiqlarni befarq bo'lmaslik, tarixiy obidalarni asrash, muzey va festivallarga qiziqish bilan borish, hunarmandchilik buyumlariga hurmat bilan qarash, o'zbek san'ati haqida faxr bilan gapira olishdan boshlanadi.

Kimdir rasm chizganida, milliy naqshlardan ilhom olishi mumkin. Kimdir raqsga qiziqadi – milliy raqsni o'rganishi mumkin. Kimdir videolar tayyorlaydi – o'zbek madaniyatini zamonaviy tilda targ'ib qilishi mumkin. Kimdir shunchaki o'zini odobli, xushmuomala tutadi – bu ham madaniyatni targ'ib qilish va unga hissa qo'shish degani. Chunki madaniyat faqat katta sahnalarda emas, odamning o'zida yashaydi.

Kelinglar, oxirida juda qisqa, lekin muhim bir mashq qilamiz. Har biringiz bir jumla bilan javob bering: “Men milliy madaniyatimni rivojlantirish uchun...” Shu gapni davom ettirasiz.

Kimdir “ko'proq kitob o'qiymen” deydi, kimdir “milliy san'atni o'rganaman” deydi, yana kimdir “madaniyatli muomala qilaman” deydi. Bu mashq o'quvchilarni tinglovchidan ishtirokchiga aylantiradi.

O'qituvchi: Demak, o'zbek madaniyati – bu muzeydagi eski buyum emas, balki tirik kuchdir. U bizning qo'shiqlarimizda, raqsimizda, hunarimizda, shaharlarimizda, so'zimizda, muomalamızda yashaydi. U bizni dunyoga chiroyli ruh, nozik did, jo'shqin kayfiyat va yuksak mahorat egasi bo'lgan xalq sifatida tanitadi.

Uni bilish bizga ildiz beradi, uni sevish bizga faxr beradi, uni rivojlantirish esa kelajakka yo'l ochadi. Endi eng muhim savol shuki: shu buyuk madaniyatning

tomoshabini bo‘lib qolamizmi yoki uning davomchisiga aylanamizmi? Umid qilamanki, bugungi darsimizdan so‘ng sizlar bu savolga to‘g‘ri javob berasizlar.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi dars davomida biz juda katta va chuqur bir tushuncha – o‘zbek madaniyati haqida gaplashdik. Shuni angladikki, madaniyat – bu faqat tarix emas. Bu – bizning ichki kodimiz, bizning axloqimiz, biz yaratadigan go‘zallikdir.

O‘zbek madaniyati – bu dunyo tan olgan boylik, lekin u o‘zbek xalqisiz yashab qola olmas edi. Madaniyatimizni asrashimiz va rivojlantirishda davom ettirishimiz kerak.

Chunki madaniyat insonning ichida yashaydi. Agar siz go‘zallikni qadrlasangiz, madaniyat yashaydi.

Bugundan boshlab gaplaringiz, muomalangiz, qarorlaringiz bilan siz dunyoni biroz yaxshiroq qila olasiz. Va balki aynan siz orqali o‘zbek madaniyati yanada yuksaladi.

Shuni unutmang, siz – bu madaniyatning davomchisiz. Sizsiz u davom etmaydi.

Shu bilan darsimiz tugadi. Xayr. Ko‘rishguncha!